

i.f.d.prof Samariddin ELMIRZAYEV, Ilhomjon RAHMONQULOV

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlar eng moslashuvchan moliyaviy instrumentlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar fuqaro huquqlarining obyekt sifatida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi. Avvallari, aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlarning ayrim turlari mulk munosabatlarida ishlatilgan (obligatsiyalar, lotoreya chiptalari, tashqi savdo aylanmasidagi veksellar). Hozirgi kunga kelib esa iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish va aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish qimmatli qog‘ozlarning turlarini qayta tiklash va yangi turlarini yaratishni talab qildi. O‘z navbatida ushbu bozor tomonidan taqdim etiladigan barcha imkoniyatlarni o‘rganish bu bozorda kapital jalb qilishning zamonaviy usullarini tahlil qilish zaruriyatini ham keltirib chiqardi.

Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, dividend, iqtisodiyot, bozor, kapital.

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ С ЦЕННЫМИ БУМАГАМИ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Аннотация. В настоящее время ценные бумаги акционерных обществ считаются одним из наиболее гибких финансовых инструментов. Ценные бумаги как объект гражданских прав тесно поддерживают развитие товарно-денежных отношений и развитие экономики страны. Сначала в акционерных обществах в имущественных отношениях использовались некоторые виды ценных бумаг (облигации, лотерейные билеты, векселя). На сегодняшний день переход экономики к рыночной экономике и формирование рынка ценных бумаг в акционерных обществах потребовали восстановления видов

ценных бумаг и создания новых видов. В свою очередь, изучение всех возможностей, предлагаемых этим рынком, также привело к необходимости проанализировать современные методы привлечения капитала на этом рынке.

Ключевые слова: акционерные общества, ценные бумаги, акция, дивиденды, экономика, рынок, капитал.

KIRISH

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini qimmatli qog'ozlar muomalasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati asosini qimmatli qog'ozlar, birinchi navbatda aksiyalar tashkil qiladi. Qarz kapitali jalb qilish maqsadida korporativ obligatsiyalar muomalasi tashkil etiladi. Bunda aksiyalar va obligatsiyalarning bir necha xil turlari qo'llanilishini ham qayd etib o'tish lozim. Shuningdek aksiyalar va korporativ obligatsiyalar bo'yicha hosilaviy qimmatli qog'ozlar muomalasi ham amal qiladi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida aksiyadorlik kompaniyalari o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlash uchun qimmatli qog'ozlardan keng foydalanadilar.

Xususan, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar muomalasi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, 2015-yil 3-iyundagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali bevosita oddiy va imtiyozli aksiyalar hisobiga shakllantiriladi. Aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarni ommaviy tarzda ochiq obuna o'tkazish orqali yoki ustavda belgilab qo'yish orqali yopiq obuna o'tkazish orqali joylashtirishlari mumkin. Ayni paytda amaldagi qonunchilikda aksiyadorlik jamiyatlarining ochiq va yopiq turlari mavjud bo'lmasada aksiyalarni ochiq yoki yopiq joylashtirish iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ochiq hamda yopiq aksiyadorlik jamiyatlari shakllanishiga olib kelmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining

milliy valyutasida ifodalanadi. Chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

Har bir aksiyadorlik jamiyati oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli hisoblanadi. Bunda joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati ustav kapitalining 20 foizidan oshmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtiriladi. Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki, agar jamiyat ustaviga yoxud aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq kuzatuv kengashiga shunday qarorlar qabul qilish huquqi berilgan bo'lsa, kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turli olimlar va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida ta'kidlash mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonalarda aksiyalar qiymatini va daromadlilikini baholash muhim ahamiyatga ega. Szarzec va boshqalar (2021) fikricha, "davlat korxonalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu ichki ijtimoiy-iqtisodiy muhitni o'zida aks ettiradigan institutsional sifat darajasiga bog'liq: davlat korxonalarida institutsional muhit qanchalik yaxshi bo'lsa, davlat korxonalarining umumiy samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi".

"Jahon miqyosida davlat korxonalarini xususiylashtirish nazariy va empirik nuqtai nazardan keng o'rganilgan, chunki bunday faoliyat siyosatchilar, investorlar, iste'molchilar va ishchilarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, davlat korxonalarini xususiylashtirishda davlat daromadlarini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, aksiyalarga egalik huquqini kengaytirish, raqobatni joriy etish imkoniyatini ta'minlash, davlat korxonalarini bozor intizomiga bo'ysundirish va milliy kapital

bozorini rivojlantirish kabilar asosiy maqsadlar hisoblanadi” (Farinós, García & other 2007).

Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish aksiyalar bozor qiymatini oshirishda muhim hisoblanadi. “Davlat korxonalari ko‘pgina mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Siyosiy sabablar yoki amaldagi vaziyatlarga ko‘ra ushbu korxonalarining ba‘zilari to‘liq davlat mulki bo‘lib qolishi mumkin. Bunday korxonalarda aksiyalar sotuvining yo‘qligi real bozorga asoslangan baholash qiymatini yuzaga kelishiga to‘sqinlik qiladi. To‘liq davlat egaligidagi korxonalar, ayniqsa, konchilik va bank sohasidagi davlat korxonalarining hisobdorligi va samaradorligini ta‘minlash uchun yangi vositalar va mexanizmlarni ishlab chiqilishi zarur” (Rodrigo, 2018).

Li va boshqalar (2022) ta‘kidlashicha, “Globallashuv, texnologik taraqqiyot va raqobatning kuchayishi ko‘plab davlat korxonalari uchun sharoitlarni o‘zgartirdi. Binobarin, davlat mulkdor sifatida vaqt o‘tishi bilan kompaniyalar portfelini moslashtirishga majbur bo‘ldi. Davlat korxonalarini rivojlantirish amaliyotiga turli xil yondashuv mavjud bo‘lib, ularning asosiylaridan biri xususiylashtirish amaliyoti hisoblanadi”.

Davlat ishtirokidagi korxonalar rivojlanishida zamonaviy tendensiyalarni inobatga olinganligiga e‘tibor qaratish lozim. “Davlat ulushini ifodalovchi aksiyalar ham davlat korxonalari tomonidan chiqariladi hamda davlat korxonalari tomonidan egalik qilinadi. Davlat korxonasi qimmatli qog‘ozlarni chiqarganda uning bir qismi davlat tashkilotida yoki davlat tomonidan vakolat berilgan xolding kompaniyasida bo‘ladi” (Minkang, Robert, 1996).

“Davlatga qarashli korxonalarda xodimlarning ish haqini oshirish xodimlarning o‘rtacha ish haqiga nisbatan taqqoslash natijalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa rag‘batlantiruvchi rol o‘ynamaydi. Shu sababli kelgusida ish haqini isloh qilishda, shuningdek, davlat korxonalarining ishlab chiqarish va faoliyat samaradorligini oshirishda institutsional yordam ko‘rsatilishi zarur” (Chuang, Yuhao, 2022).

Elmirzayev va Omonov (2020) aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini qisqartirish zarurligiga e‘tibor qaratgan. “Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini kamaytirish va ularda samarali korporativ boshqaruvni tashkil etish orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yaxshilash zarur”. Bu orqali korxonalar

faoliyatini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Karimov (2021) fikricha, “qimmatli qog‘ozlar bozorini har tomonlama rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh qolgan moliyaviy resurslarini fond bozori orqali davlatdagi yirik va investitsiya talab qiluvchi biznes subyektlariga samarali yo‘naltirish va ularning nazoratini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan” hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat ishtirokidagi korxonalariga yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh qolgan moliyaviy resurslarini jalb qilish uchun fond bozori imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

“O‘zbekistonda banklar innovatsion mahsulotlarini keng joriy qilinishi tendensiyalari va muammolari davlatning innovatsion rivojlantirish strategiyasi bilan belgilangan” (Abdurahmonova, 2023), chunki davlat ishtirokidagi tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank mahsulotlarini keng joriy qilish investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda “biznesni kengaytirish, istiqbolli loyihalarni amaliyotga tatbiq etish, faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kabi masalalarni ijobiy hal etishda moliyaviy resurslarga ehtiyoj seziladi” (Jo‘rabekovich, 2021). Mazkur jihat davlat ishtirokidagi korxonalarda xususiyashtirish amaliyotlarini muvaffaqiyatli o‘tkazishda qo‘l keladi.

Yuqoridagilar asosida ta’kidlash mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish bilan bir qatorda ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali aksiyalar bozor qiymatini oshirish hamda daromadlilikini oshirish lozim.

TAHLILLAR VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Aksiyalarning dastlabki chiqarilishini joylashtirish muddati aksiyadorlik jamiyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran bir yildan oshmasligi lozim. Qo‘shimcha aksiyalarni va boshqa emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Aksiyadorlik jamiyatining joylashtirilmagan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari ko‘rsatilgan muddat o‘tganidan keyin

qonun belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlar bozori emitenti sifatida o'z aksiyalarini ochiq va yopiq obuna tartibida joylashtirishlari mumkin. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy kapital jalb qilish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu masala aksiyalarni ochiq obuna tarzida xalqaro fond birjalarida joylashtirish orqali ham amalga oshiriladi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatining o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan quyida aynan shu masala xususida to'xtalib o'tamiz.

Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti qisqacha IPO (ing. «Initial Public Offering») deb yuritiladi. IPO emitent tomonidan aksiyalarni bozorda birlamchi ochiq obuna usulida joylashtirish bo'lib, bu jarayon davomida ular investorlarning keng doirasiga kirib boradilar va fond birjasida erkin savdoni amalga oshiradilar. Boshqacha qilib aytganda IPO deganda emitent kompaniyaning aksiyalarini ochiq bozorda birinchi marta sotuvga chiqarishi tushuniladi. Shu yo'l bilan kompaniya «yopiq»dan «ochiq»ga o'zgaradi, ya'ni shu kompaniya aksiyalariga qiziqib qolgan investorlar ularni fond birjasida erkin sotib olishlari mumkin.

Kompaniya qimmatli qog'ozlarining birjada muomalaga chiqishi natijasida ularni erkin savdo-sotiq predmeti bo'lishiga, likvidliligi oshishiga va ularning bozor bahosining maksimal o'sishiga olib keladi. IPO yordamida kompaniyada joriy xarajatlarni qoplashga va yirik loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoni tug'iladi.

IPO uchun talab qilinadigan jarayonlar va ularning amalga oshirilishi kompaniyaning shaffofligini oshiradi va uning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi. Umumiy holda oddiy aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtirish IPO operatsiyalarining afzalliklari va kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

1-Jadval

Oddiy aksiyalar emissiyasi hisobiga moliyalashtirish va IPO operatsiyalari afzalliklari va kamchiliklari

No	Afzalliklar	Kamchiliklar
1.	Bu manba majburiy to'lovni o'zida aks ettirmaydi, ya'ni dividend to'lash to'g'risidagi qaror direktorlar kengashi tomonidan qabul qilinadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi	Korxonani boshqarishda va foydani taqsimlashda ishtirokchilar soni ortadi
2.	Aksiyalar qoplanishi bo'yicha qat'iy belgilangan muddatga ega emas, chunki aksiyalar doimiy kapital manbasi bo'lib xizmat qiladi	Qo'shimcha aksiyalar emissiyasi investorlar tomonidan salbiy signal sifatida qabul qilinishi mumkin va bu qisqa muddat ichida aksiyalar kursining pasayishiga olib kelishi mumkin
3.	Aksiyalar likvidligining oshishi va kapital qiymati pasayganda yirik, uzoq muddatli moliyalashtirish manbasiga ega bo'lishi	Moliyaviy va yuridik ma'lumotlarning oshkoraligi
4.	Kelajakda pozitsiyalari kuchliroq kompaniya bilan o'zaro birlashishning osonlashishi	IPOni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarning yuqoriligi
5.	Investorlar va mulkdorlar uchun biznesdan chiqish yo'lining osonlashishi	«Dushman» aksiyadorlarning kompaniya faoliyatiga kirib kelish ehtimoli
6.	Kompaniya nufuzining oshishi, uning bozorda tanilishi va investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi va boshqalar	Kompaniyaning investitsion tarixi bo'lishi shartligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-162-son qaroriga muvofiq "Xalqchil IPO" o'tkazilishi e'lon qilingan, uning doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan 12 ta davlat korxonasi tanlab olinib, ularning aksiyalari IPO/SPOga chiqarilishi e'lon qilindi.

“Xalqchil IPO” nima? “Xalqchil IPO” - O'zbekistondagi maxsus dastur bo'lib, u oddiy fuqarolarga mamlakatning yirik kompaniyalari aksiyalarini sotib olish imkonini beradi. Ushbu dastur doirasida aksiyalar istalgan shaxslar uchun savdoga chiqarildi va unda barcha fuqarolar ishtirok etib, aksiyador bo'lishdi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ushbu dasturning birinchi bosqichida quyidagi kompaniyalarning aksiyalarini sotib olishni taklif qildi:

❖ "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati"

(O‘zbekistondagi yirik kon-metallurgiya korxonalaridan biri),

- ❖ “O‘zbektelekom” (O‘zbekistondagi yirik aloqa operatori),
- ❖ “O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi” (“O‘zRTXB”) (O‘zbekistonda dividendlar to‘lash bo‘yicha yetakchi kompaniya),
- ❖ “O‘ztemiryo‘lkonteyner” (yuk tashish).

Aksiyalarni sotib olishning 3 usulida yo‘lga qo‘yildi.

1. Broker orqali.

2. Mobil ilovalar orqali: Jett va Go Invest investitsiya ilovalari orqali.

3. E-auksion maxsus platformasi orqali: ipo.e-auksion.uz

Dastlab, joriy yilning 26 sentyabridan 8 noyabr kuniga qadar “O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi”ning **3 326 031 dona** (Ustav fondining 4,4) har bir aksiya bahosi diapazoni 12 900 so‘mdan 18 000 so‘mgacha belgilangan.

Takidlash joizki, “O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi” Markaziy Osiyo va MDH davlatlar birjalari o‘rtasida yaratilgan infratuzilma, raqamli xizmatlar va savdo hajmlari bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda.

“Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi birjaga “B” – barqaror reytingini, “Katta to‘rtlik”ga kiruvchi “ERNST & YOUNG” xalqaro auditorlik tashkiloti esa ijobiy audit xulosasini berishgan.

So‘nggi 5 yil davomida birjaning barcha elektron savdo tizimlarida tuzilgan bitimlar bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlarga erishildi. Xususan, o‘tgan davrda Birja orqali tuzilgan bitimlar hajmi **3,5 marotaba** o‘sib, yillik **150 trillion so‘mlik** savdolar o‘tkazildi, birjaning rentabelligi **2 barobarga**, daromadi **3 barobardan, sof foyda** deyarli **4 barobarga** oshgan.

“O‘zRTXB” AJning aksiyalari ommaviy taklifidan so‘ng, birjalar savdolar hajmining yillik o‘sishini **20-25%** atrofida saqlanishini, sof foydani har yili o‘rtacha **30-35%ga** o‘sishini ta‘minlash va uning kamida **85%ni dividendlarni** to‘lashga yo‘naltirilishi hamda 1 yil davomida aksiyalarning narxi **30 foizga** oshishi tahmin qilinmoqda.


Quvonarlisi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan jismoniy shaxslarning 1000 tagacha aksiya sotib olish bo‘yicha arizalari birinchi o‘rinda qanoatlantiriladi. Rezident yuridik shaxslarning arizalari ikkinchi navbatda ko‘rib chiqiladi, boshqa toifadagi investorlarning arizalari esa so‘nggi navbatda qanoatlantiriladi”– deb ta‘kidlagan “O‘zRTXB” AJ boshqaruv raisi Farrux

Xo‘jayev.

Shuningdek, “O‘zRTXB” AJ aksiyalarini ommaviy joylashtirish jarayonida raqobat muhitini ta‘minlash va jamoatchilik qamrovini kengaytirish maqsadida qo‘shimcha ravishda **10 dan ortiq** – “**Mulk sarmoya brokerlik uyi**” AJ, “**Freedom Finance**” MChJ, “**Alkes Research**” MChJ, “**Alp Omad Invest**” MChJ, “**Premium Finance**” MChJ, “**Qoraqalpog‘iston vaqt**” MChJ, “**Dalal Standart**” MChJ, “**Leader Finance Capital**” MChJ, “**Silk Capital**” MChJ, “**Ishonch Ltd**” MChJ, “**Tat-Reestr**” MChJ va “**Finance Invest Brok**” MChJ kabi **investitsiya vositachilari** jalb qilingan.

Olib borilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari va hududlarda o‘tkazilgan **Road show** dasturlari hamda fuqarolar tomonidan bildirilgan qiziqishlari natijasida sotib olishga taklif etilgan aksiyalar bo‘yicha **yetarlicha buyurtmalar yig‘ilganligi** birja ijro organi tomonidan rasmiy e‘lon qilingan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining davlat qimmatli qog‘ozlari (DQQ) daromadlilik egri chizig‘i – milliy valyutadagi qarz vositalarining narxlari va muddatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi grafik e‘lon qildi. Ya‘ni ushbu grafik davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha turli muddatlarda qanday daromadlilik taklif qilinayotganini ko‘rsatadi.



1-rasm. 2024 yil 6 noyabr holatiga davlat qimmatli qog‘ozlari daromadlilik egri chizig‘i. (<https://cbu.uz/oz/monetary-policy/local-currency->

yield-curve/)

DQQ daromadlilik egri chizig'i birlamchi va ikkilamchi bozorlarda shakllangan davlat qimmatli qog'ozlari (Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar) daromadliliigi hamda pul bozori overnayt stavkasi, Markaziy bankning depozit va REPO auksionlari foiz stavkalari asosida hisoblanadi.

Ushbu vositalar bo'yicha hisob-kitoblar har haftaning seshanba kuni soat 18:00 gacha bo'lgan bir haftalik bitimlar natijalari asosida amalga oshiriladi va har chorshanba kuni soat 10:00 gacha e'lon qilinadi.

Daromadlilik egri chizig'i kelgusi iqtisodiy sharoitlar va inflyatsion jarayonlar to'g'risidagi kutilmalarni shakllantirishga imkon yaratib, moliya bozori ishtirokchilari uchun muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aksiyalarni ochiq obuna tarzida ommaviy fond birjalarida joylashtirish, ya'ni IPO operatsiyalarining tashkiliy xususiyatlariga doir quyidagi xulosalarni alohida keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish nisbatan yuqori miqdordagi xarajatlarni, ko'p vaqtni talab qilsada katta miqdordagi kapitalni ham jalb qilish imkonini beradi. Bu o'z navbatida yangidan yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlardagi strategik ahamiyatga ega korporativ tuzilmalar tomonidan IPO operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida mazkur amaliyotning kamchiliklarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Chunki dushmanlik kayfiyatidagi investorlarning korporativ tuzilmalar faoliyatiga kirib kelishi kompaniya moliyaviy xavfsizligiga putur yetkazishi bilan bir vaqtda mamlakat iqtisodiyotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchidan, potentsial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o'tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim. Chunki dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi.

To'rtinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik

jamiyatlari aksiyalarini xalqaro fond birjalariga ochiq joylashtirish amaliyotini tashkil etishda listing talablaridan biri hisoblangan dastlabki to'lovlar va har yillik to'lovlar darajasini hisobga olish lozim. Chunki bunday to'lovlarning amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasligi talab etiladi.

Beshinchidan, xalqaro yetakchi fond birjalarining IPO bo'yicha talablariga mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha aksiyadorlik kompaniyalarining ham javob bera olmasligidan kelib chiqqan holda mintaqaviy fond birjalarini rivojlantirish yoki talablari nisbatan qulayroq bo'lgan fond birjalariga aksiyalarni joylashtirish bo'yicha strategik moliyaviy rejalar mamlakat miqyosida qabul

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risadi"gi Qonuni. (<https://lex.uz/acts/-1374865>)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-162-son Qarori. (<https://lex.uz/docs/68987062>.)
3. S.Elmirzayev – "Korporativ boshqaruv" darsligi (2021-yil).
4. S.Elmirzayev – "Moliya bozori" o'quv qo'llanmasi.
5. "Qimmatli qog'ozlar bozori turlarining rivojlanish tarixi" Usmonova X, Toshkent – 2006.
6. A.Karimov – Aholining bo'sh pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilish mexanizmlari samaradorligi tahlili (2021).
7. X.Ahmedov - Davlat ishtirokidagi korxonalarda aksiyalar qiymati va daromadlilikini baholash (2024).
8. J.Qurbonov – Xalqaro IPO amaliyotlari tahlili tashkiliy xususiyatlari va institutsional investorlar ishtiroki (2021).
9. https://xalqchilipo.uz/company/tovar_xomashyo_birjasi.html
10. <https://davaktiv.uz/oz/news/halchil-ipo-dasturiga-start-berildi-roadshow-tadimoti-tafsilotlari>.